



2025

№7

ISSN 3060-527X

TA'LIMDA ISTIQBOLLI IZLANISHLAR.

XALQARO ILMIY METODIK JURNAL
МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
INTERNATIONAL SCIENTIFIC METHODOLOGICAL JOURNAL



**TA'LIMDA ISTIQBOLLI
IZLANISHLAR**

Xalqaro ilmiy-metodik jurnal

**ПЕРСПЕКТИВНЫЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ В ОБРАЗОВАНИИ**

Международный научно-методический
журнал

**PROSPECTIVE RESEARCH IN
EDUCATION**

International scientific methodological journal

№ 7-Son, 2-Qism 2025-yil

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK Rayosatining 2024 - yil 7 - iyundagi 355-son qarori bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

19.00.00 - PEDAGOGIKA

Familiya I.Sh.		Mavzu	Bet
Ashurova	Marhabo	Buxoro jadid madrasa va maktablarida ta'lim tizimi	5
Sayfulloyevna			
Elliyev	Hamza	Fizika fanini o'qitishda o'quvchilarning tabiiy ilmiy savodxonligini rivojlantirishning dolzarbligi	10
Quvvatovich			
Ollaberganova	Sanobar	Folklor janrlari va ularning ijtimoiy, metodik va lingvistik funksiyalari	15
Xamidovna			
Umirov	Iskandar	Muhandislik ta'limida loyihaviy-konstruktorlik faoliyatining mohiyati	20
o'g'li			
Sobirova	Nasiba	Basketbol sport turini oliy ta'lim muassasalarida o'qitish asoslari: jahon tajribasi va o'zbekiston	24
Rasulovna			
Taylakova	Dilnoza	Ona tili fanini o'qitishda pedagogik ta'lim texnologiyalarining shaxsga yo'naltiruvchi metodik vositasi sifatida	29
Norbekovna			
Amonov	Sunatillo	The power of linguocreative games in language development	34
Nusratovich			
Qayumova	Gulshodaxon	Talabalarni amaliyot jarayonida pedagogik mas'uliyatini shakllantirish texnologiyalari	39
Muhammadjon qizi			
Nazarov	Jamshid	Bo'lajak chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchilarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	43
Xoliyorovich			
Saidmuratova	Malohaxat	O'zlashtirishi psat bo'lgan o'quvchilar bilan ishlash metodikasi	48
Baxtiyorovna			
Sharopov	Jahongir	Gibrid ta'lim muhitida flip-kitoblar: an'anaviy va raqamli kimyo ta'limi integratsiyasi	56
Mustaqim o'g'li			
Мамедова	Шахло	Диалог культур в процессе обучения русскому языку как средство развития культурно-эстетической компетентности	64
Душамбоевна			
Abdullayev	Farxodbek	Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida yuqori sinf o'quvchilarini kasb-hunarga tayyorlashda ekologik ko'nikmalarni rivojlantirishning nazariy metodologik mexanizmi	69
Xasanovich			
Qurbonov	O'tkirbek	Ta'lim tizimida boshqruv strategiyasini shakllantirish va rejalashtirish omillari	74
Инагамова	Лола	Необходимость оценки компетенций государственных служащих и вопросы ее реализации	78
Усманбековна			
Babajanov	Ilhom	Talabalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishning pedagogik modeli	87
Abdulla o'g'li			
To'xtayeva	Sitora	Ta'lim va tarbiya jarayonida qadriyatlarining namoyon bo'lish shakllari	92
Shuhrat qizi			
Qurbonova	Nigina	Yosh avlodni tarbiyalashda sadriddin ayniy ilmiy merosining pedagogik mazmuni	97
Boboxo'jayevna			

*Taylakova Dilnoza Norbekovna,
Oriental universiteti dotsenti*

ONA TILI FANINI O'QITISHDA PEDAGOGIK TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING SHAXSGA YO'NALTIRUVCHI METODIK VOSITASI SIFATIDA

Annotatsiya. Ushbu maqolada ona tili fanini o'qitishda pedagogik ta'lim texnologiyalarining shaxsga yo'naltiruvchi metodik vosita sifatidagi roli keng yoritib berilgan. Hozirgi kunda juda dolzarb mavzu va zamonaviy ta'lim jarayonida individual yondashuvni ta'minlashga bo'lgan ehtiyoj bilan belgilanadi. Maqolada innovatsion texnologiyalar orqali o'quvchilarning fikrlash, muloqot va ijodiy salohiyatini rivojlantirish imkoniyatlari haqida ham ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Natijada, shaxsga yo'naltirilgan metodlar o'quvchilarning faolligini oshirib, bilim sifatini yaxshilaydi. Shuningdek, pedagogik texnologiyalar ona tili ta'limida samaradorlikni ta'minlovchi muhim omil ekani asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: metod, shaxs, ta'lim, samara, vosita, ona tili

Abstract. This article extensively covers the role of pedagogical educational technologies as a personality-oriented methodological tool in teaching the subject of native language. Currently, this is a very relevant topic and is determined by the need to ensure an individual approach in the modern educational process. The article also provides information on the possibilities of developing students' thinking, communication, and creative potential through innovative technologies. As a result, personality-oriented methods increase student activity and improve the quality of knowledge. It is also substantiated that pedagogical technologies are an important factor ensuring the effectiveness of native language education.

Key words: method, personality, education, effect, means, native language.

Аннотация. В данной статье широко освещается роль педагогических образовательных технологий в преподавании родного языка как лично-ориентированного методического средства. В настоящее время это очень актуальная тема и определяется необходимостью обеспечения индивидуального подхода в современном образовательном процессе. В статье также представлена информация о возможностях развития мышления, общения и творческого потенциала учащихся посредством инновационных технологий. В результате лично-ориентированные методы повышают активность учащихся и улучшают качество знаний. Также обосновано, что педагогические технологии являются важным фактором, обеспечивающим эффективность обучения родному языку.

Ключевые слова: метод, личность, образование, эффект, средство, родной язык

Kirish. Ma'lumki, fan va ta'lim doimo birlikda va o'zgarishda rivojlanadi. Ta'lim tizimini yanada rivojlantirish, xorijiy mamlakatlarning tajribasini chuqur o'rgangan holda zamonaviy metodlar va texnologiyalar asosida o'qitish masalalariga hukumatimiz tomonidan berilayotgan e'tibor juda katta bo'lmoqda. Innovatsion va pedagogik texnologiyalarning mamlakatimiz ta'lim sohasiga kirib kelishi - bu ta'limda tub burulish davri bo'ldi deb aytsak mubolag'a bo'lmaydi. Innovatsion texnologiya va metodlar bu o'quv jarayonida asosiy boshqaruvchi - o'qituvchi, boshqariluvchi - o'quvchifaoliyati birgalkda yo'naltiriladi va bu jarayonda o'qituvchidan ham o'quvchidan ham mustaqillik va ijodkorlik sifatlarini talab etadi. Bugungi globallashuv jarayonida har bir soha tezkor rivojlanmoqda. Ayniqsa, ta'lim tizimida yuz berayotgan yangilanishlar, raqamli texnologiyalarni tatbiq etish va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy qilish ta'lim mazmunini tubdan o'zgartirmoqda. O'zbekiston Respublikasida ham ta'limga oid islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgani, o'qitish jarayonini shaxsga yo'naltirishga doir tamoyillarni keng joriy qilish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, ona tili kabi asosiy fanlarni o'qitishda innovatsion pedagogik

texnologiyalarni tatbiq etish orqali o'quvchining shaxsiy qobiliyati va salohiyatini yuzaga chiqarishga alohida e'tibor qaratilmoqda [1].

Ona tili fani nafaqat o'quvchilarga lingvistik bilim berish, balki ularning muloqot madaniyatini, mustaqil fikrlash va ijtimoiy faolligini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Shu bois, ushbu fan bo'yicha o'qitish metodikasini takomillashtirish, ayniqsa, pedagogik texnologiyalar asosida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amaliyotga tadbiq etish dolzarb muammolardan biridir. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim metodikasi – bu o'quvchining individual ehtiyojlari, qiziqishlari, bilish darajasi, faoliyat turi va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda bilim berishdir. Bu uslub nafaqat bilim o'zlashtirishni yengillashtiradi, balki o'quvchilarni mustaqil o'rganish, tahlil qilish, ijodiy yondashuv va muammoli vaziyatlarni yechishga tayyorlaydi [2].

Ta'lim texnologiyalari – bu o'qitish jarayonini rejalashtirish, tashkil qilish, baholash hamda monitoringini olib borishda qo'llaniladigan usul va vositalar majmuidir. Pedagogik texnologiyalar yordamida darslar interfaol, mazmunli, samarali va o'quvchi faoliyatiga yo'naltirilgan tarzda tashkil etiladi. Ayniqsa, AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari), klaster texnologiyasi, loyiha asosida o'qitish, muammoli ta'lim kabi zamonaviy yondashuvlar ona tili ta'limida o'quvchilarning tilga bo'lgan qiziqishini oshirib, ularni faol fikrlovchi, o'z fikrini aniq ifodalay oluvchi, tanqidiy va ijodiy tafakkurga ega shaxs sifatida shakllantiradi [3].

Ona tili fanini o'qitishda pedagogik ta'lim texnologiyalarining shaxsga yo'naltiruvchi metodik vosita sifatidagi o'rni va ahamiyatini yoritib berishga intiladi. Tadqiqot davomida ona tili darslarida innovatsion texnologiyalarning o'rni, ularning o'quvchining bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishdagi samarasi, shuningdek, pedagogik yondashuvlarda yuzaga kelayotgan muammolar va ularni hal etish yo'llari tahlil qilinadi. Ona tili fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarning individual salohiyatini ochib beruvchi metodik vositalarni aniqlash, ularning o'quv faoliyatiga bo'lgan munosabatiga qanday ta'sir ko'rsatishini tahlil qilishdan iboratdir.

Adabiyotlar tahlili. Ona tili ta'limi metodikasini rivojlantirishda bir qancha o'zbek olimlari muhim ilmiy izlanishlar olib borishgan. Jumladan, R. Xoliqova, X. Yo'ldoshev, M. Quronov, A. Jo'raev, N. Karimov kabi olimlarning ona tili va adabiyotni o'qitish metodikasiga doir tadqiqotlari pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish masalalarida muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

R.Xoliqova o'zining “Ona tili o'qitish metodikasi” nomli ishlarida til o'rganishning nazariy va amaliy asoslarini, dars jarayonida qo'llaniladigan interfaol usullarni, o'quvchining fikrlash faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan metodlarni yoritadi. U o'z tadqiqotlarida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv o'quvchining mustaqil fikrlashi va ijodiy salohiyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi [3].

X.Yo'ldoshev esa til o'qitish jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilar faolligini oshirishga alohida urg'u beradi. U klaster texnologiyasi, aqliy hujum, konseptual xarita kabi metodlarning ona tili darslaridagi amaliy samaradorligini tahlil qiladi. Uning fikricha, texnologiyalar asosida tuzilgan darslar o'quvchining idrok etish, tahlil qilish va baholash kompetensiyalarini rivojlantiradi [4].

Shuningdek, M.Quronov va N.Karimov kabi olimlarning tilshunoslik va ta'lim metodikasi sohasidagi asarlari ham ona tilini zamonaviy yondashuvlar asosida o'rgatish bo'yicha boy nazariy asoslarni taqdim etadi. Ular til materiallarini funksional va kommunikativ yondashuv asosida o'rgatish, o'quvchining faol ishtirokiga asoslangan metodlarni qo'llashni tavsiya etadilar [5,6].

Xorijiy adabiyotlarga murojaat qiladigan bo'lsak, J.Dewey, L.S. Vygotskiy, Howard Gardner, Benjamin Bloom kabi olimlar tomonidan ilgari surilgan ta'lim nazariyalari pedagogik texnologiyalar va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillarining ilmiy asoslarini tashkil etadi [7-11].

Benjamin Bloom tomonidan ishlab chiqilgan Bloom taksonomiyasi esa ta'lim maqsadlarini bilim, tushunish, qo'llash, tahlil, sintez va baholash kabi bosqichlarga ajratadi. Ona tili darslarida ushbu bosqichlardan foydalanish orqali o'quvchilarning fikrlash darajasini bosqichma-bosqich rivojlantirish mumkin.

Howard Gardner esa o'zining ko'p intellekt nazariyasida har bir o'quvchining bilish uslubi va qobiliyati individual ekanligini ta'kidlab, bu esa o'qituvchidan o'z fanini turli metodlar orqali tushuntirishni talab qiladi. Bu g'oya shaxsga yo'naltirilgan o'qitish asoslarini mustahkamlaydi [11].

Metodologiya. Hozirgi kunda deskriptiv (tasviriy) metod, taqqoslash, tahlil-sintez, pedagogik kuzatuv, intervyu, anket so'rovi, hamda amaliy tajriba usullari keng qo'llanilib kelmoqda. Bu metodlar o'quvchilarning dars jarayonidagi faolligini, shaxsiy yondashuv asosida o'rgatilgan darslarning samaradorligini va o'qituvchilarning texnologiyalardan foydalanish darajasini aniqlashga xizmat qildi.

Biz ham o'z tadqiqotlarimizda shu metodlardan foydalanilgan hamda quyidagi bosqichlarga ajratilib ko'rsatilgan.

Birinchi bosqichda, mavzu bo'yicha mavjud ilmiy va uslubiy adabiyotlar tahlil qilindi. O'zbek va xorijiy olimlarning pedagogik texnologiyalar, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim hamda ona tili o'qitish metodikasi haqidagi qarashlari chuqur o'rganildi. Ushbu adabiy manbalar orqali mavzuning nazariy asoslari belgilandi.

Ikkinchi bosqichda esa maktab o'qituvchilari bilan suhbatlar o'tkazilib, ularning dars jarayonida qanday texnologiyalardan foydalanishi, qaysi metodlar samaradorlik keltirayotgani, shuningdek, qiyinchiliklar va takliflar to'g'risida ma'lumotlar yig'ildi. Bu bosqichda 20 nafardan ortiq ona tili fani o'qituvchilari bilan intervyular va anket so'rovlari amalga oshirildi.

Uchinchi bosqichda, tanlab olingan ikki umumta'lim maktabida eksperimental darslar tashkil etildi. Bir guruhda an'anaviy metodlar, ikkinchi guruhda esa shaxsga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalar asosida darslar o'tkazildi. Darslardan so'ng o'quvchilarning bilim darajasi, mustaqil fikrlashi, darsga bo'lgan qiziqishi va faol ishtiroki o'rganildi. Bu orqali texnologik yondashuvlarning real ta'siri aniqlandi.

Tahlil natijalarini chuqurlashtirish uchun kuzatuv jadvali, diagnostik testlar va refleksiya so'rovlaridan foydalanildi. Bu vositalar yordamida o'quvchilarning shaxsiy salohiyatini ochish, muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish va mustaqil tahlil qilishga tayyorligini baholash imkoniyati yaratildi.

Tadqiqotda aksiologik, psixologik-pedagogik, kommunikativ yondashuvlar metodologik asos sifatida tanlandi. Ayniqsa, kommunikativ yondashuv o'quvchilarning til vositalaridan samarali foydalanishini, fikrini aniq va ravon ifoda etishini shakllantirishda asosiy mezon sifatida e'tiborga olindi.

Umuman olganda, metodologik yondashuvlar orqali pedagogik texnologiyalarning ona tili ta'limidagi real o'rni, ularning o'quvchilarga ta'siri, hamda shaxsga yo'naltirilgan metodlarning afzalliklari chuqur tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari esa ushbu yo'nalishdagi kelgusidagi ilmiy izlanishlar va amaliy faoliyatlar uchun ishonchli metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Natija va xulosa. Tadqiqotimiz davomida olib borilgan kuzatuvlar, intervyular, so'rovnomalar va eksperimental darslar asosida pedagogik ta'lim texnologiyalarining ona tili fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan metodik vosita sifatida yuqori samaradorlikka ega ekani isbotlandi. Tajriba asosida o'tkazilgan darslarda o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi, mustaqil fikrlash ko'nikmasi va darsga bo'lgan qiziqishi an'anaviy usullarga nisbatan sezilarli darajada oshgani kuzatildi.

Eksperimental sinfda darslar interfaol metodlar, jumladan "fikrlar almashinuvi", "klaster", "konseptual xarita", "muammoli vaziyatlar asosida o'rgatish" texnologiyalari asosida olib borildi. Bu metodlar orqali har bir o'quvchining darsdagi ishtiroki faollashdi, o'z fikrini

aniq, lo'nda va mantiqiy tarzda ifodalashga intilishi kuchaydi. O'quvchilarning ijodiy ishlarga bo'lgan ishtiyoqi, nutq madaniyati va savodxonligi ham ijobiy tomonga o'zgardi.

1-jadval

Taqqoslovchi tahlillar natijasida quyidagilar aniqlandi:

№	Ko'rsatkichlar	Shaxsga yo'naltirilgan metodlar asosida o'qitilgan o'quvchilar (%)	An'anaviy metodlar asosida o'qitilgan o'quvchilar (%)	Farq (foizda)
1	Darsga bo'lgan qiziqish darajasi	80%	45-50%	+30-35%
2	Mustaqil fikr bildirishi va muammoga ijodiy yondashuvi	65%	45-50%	+15-20%
3	Og'zaki va yozma muloqotda faollik	72%	45-50%	+22-27%

O'qituvchilar bilan o'tkazilgan suhbatlar shuni ko'rsatdiki, aksariyat pedagoglar zamonaviy metodlardan foydalanish zarurligini his qilishadi, biroq texnologik vositalar, metodik qo'llanmalar va vaqt cheklovlari bu borada to'siq bo'lishi mumkin. Shunga qaramay, tajribada qatnashgan o'qituvchilar pedagogik texnologiyalar o'quvchilar bilan ishlashda samaradorlikni oshirishini, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv orqali har bir o'quvchining ehtiyojiga mos o'qitish imkonini yaratishini ta'kidlashdi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, ta'lim texnologiyalarini ona tili darslariga tatbiq etish nafaqat dars mazmunini boyitadi, balki o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida interaktiv muloqotni kuchaytiradi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarni faollikka, fikrlashga, bahslashishga va tanqidiy yondashishga o'rgatadi. Shu bilan birga, til materiali orqali kommunikativ kompetensiya, funksional savodxonlik va tahliliy tafakkur shakllanadi.

Shuningdek, natijalarga ko'ra, ona tili darslarida qo'llanilgan pedagogik texnologiyalar o'quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantiribgina qolmay, ularni ijtimoiy jihatdan ham faollashtiradi. Bu holat ayniqsa yozma ishlar, jamoaviy loyihalar va bahsli mavzulardagi muhokamalarda yaqqol namoyon bo'ldi.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, ona tili fanini o'qitishda pedagogik ta'lim texnologiyalarining shaxsga yo'naltirilgan metodik vosita sifatida qo'llanilishi o'quvchilarning bilim olishini faollashtiradi, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini rivojlantiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar samarali bo'lib, har bir o'quvchining individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqaradi. Shuningdek, pedagogik yondashuvlarning metodik asosda puxta rejalashtirilishi ta'lim sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Kelgusida bu yondashuvlarni yanada keng joriy etish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Shayxislamov, N. (2021). Ona tili darslarida" so'z tarkibi" Mavzusining o'rganilishi yuzasidan mulohazalar. *Academic Research in Educational Sciences*, 2, 119-124.
2. Shayxislamov, N. (2020). Ona tili fanini o'qitishning muammolari. *Science and Education*, 1(Special Issue 2).
3. R. Xoliqova, *Ona tili o'qitish metodikasi*, Toshkent: O'qituvchi, 2006.
4. X. Yo'ldoshev, "Zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida ona tili darslarini tashkil etishning metodik asoslari," *Pedagogika va psixologiya*, vol. 4, pp. 22-26, 2019.
5. M. Quronov, *Tilshunoslikka kirish*, Toshkent: Fan, 2010.

6. N. Karimov, “Lingvistik kompetensiyani shakllantirishda integrativ yondashuv,” *Filologiya masalalari*, no. 2, pp. 45–50, 2021.
7. A. Jo'raev, “Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – taraqqiyot garovi,” *O'zbek tili va adabiyoti*, no. 1, pp. 15–19, 2020.
8. L. S. Vygotsky, *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*, Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
9. J. Dewey, *Experience and Education*, New York: Macmillan, 1938.
10. H. Gardner, *Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences*, New York: Basic Books, 1983.
11. B. Bloom, *Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. Handbook I: Cognitive Domain*, New York: Longman, 1956.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2025-yil 16-fevral kuni № 622042-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi,
Buxoro shahri Alpomish ko'chasi, 9-uy
Elektron manzil: <https://fanistiqbollari.uz>
Telegram raqami: +998 (93) 689-80-90

*Ta'limda istiqbolli izlanishlar //xalqaro ilmiy-metodik jurnal.
Buxoro, 2025. № 7-son, 2-Qism.*